

**MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK O‘ZBEK
XALQINING YUksAK QADRIYATI SIFATIDA AHAMIYATINING
MUHIM JIHATLARI**

Maxmudova Hurmatoy Muxtorovna

Buxoro Davlat Universiteti talabasi

Yurisprudensiya ta’lim yo‘nalishi

Thurmat156@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada o‘zbek xalqining naqadar oliyjanob va bag‘rikengligi, yurtimizda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik yuksak qadriyat sifatida ming yillardan buyon amal qilib kelinayotganligi va mamlakat miqiyosida bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning ahamiyatli va muhim jihatlari hamda bunga yaratib berilayotgan shart sharoitlar haqida yoritib beriladi hamda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglikni yanada rivojlantirish bo‘yicha xulosa takliflar bayon qilinadi.*

TAYANCH SO‘ZLAR: *Millat va elat vakillari, etnik munosobatlar, urf-odatlar va an'analar, do'stlik, madaniyat, festival, vijdon erkinligi, diniy tashkilot, harakatlar strategiyasi, Amir Temur, "Temur tuzuklari", yangi O‘zbekiston, inauguratsiya, inson qadri, Taraqqiyot strategiyasi hamkorlik va hamjihatlik, Markaziy Osiyo, "Qo‘sning tinch-Sen tinch", manfaat, an'ana va qadimiylar urf-odatlar, "Jaholatga qarshi – ma'rifat", Vatan taraqqiyoti, mamlakati tinchligi, el-yurt farovonligi.*

ABSTRACT: *This article explains how noble and tolerant the Uzbek people are, how interethnic harmony and religious tolerance have been practiced in our country for thousands of years, and the important and important aspects of the work being carried out in this regard at the national level, as well as the conditions created for this. will be given and suggestions for the further development of interethnic harmony and religious tolerance will be presented.*

KEY WORDS: *Representatives of nations and peoples, ethnic relations, customs and traditions, friendship, culture, festival, freedom of conscience, religious organization, action strategy, Amir Temur, "Temur's rules", new Uzbekistan, inauguration, human dignity, Progress strategy of cooperation and solidarity, Central Asia, "Neighbor is peaceful - You are peaceful", interests, traditions and ancient customs, "Enlightenment against ignorance", development of the Motherland, peace of the country, well-being of the nation.*

KIRISH. Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik g‘oyasi - turli millat va elatlar vakillarining bir zamin, bir vatanda olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashini anglatadi. Qadim-qadimdan milliy qadriyatlarimiz ezgulik g‘oyalariga asoslanib, yaxshilik, tinchlik, do‘stlik kabi fazilatlarga tayanib kelgan. Odamlarni halollik, poklik, mehr-oqibat va bag‘rikenglikka chorlagan.

Mustaqillik sharofati bilan 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydigan O‘zbekistonda turli millat va elat vakillari farovon yashashi, osoyishta hayot kechirishi uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Etnik munosobatlar va din sohasida olib borilayotgan izchil va oqilona siyosat tufayli mamlakatimizda millatlararo totuvlik, dinlar va konfessiyalararo hamkorlik qaror topdi. Konstitutsiyamizda “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqyeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar”, degan tamoyilning mustahkamlab qo‘yilganligi, shuningdek, 4-moddada “Ozbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analarini hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi” deb belgilanganligi, 35-moddaga asosan “Hamma uchun vijdon erkinligining kafolatlanganligi va har bir inson xohlagan diniga e’tiqod qilishi mumkinligi” belgilanganligi esa, bu boradagi ishlarning qonuniy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

ASOSIY QISM. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan 1992-yil 3-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi baynalmilal madaniyat markazi ta’sis etilganligini, “O‘zbekiston umumiy uyimiz” deb nomlangan do‘stlik va madaniyat festivalinig har yili o‘tkasib kelinayotgani, 1991 yilda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinganligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 7-mart kunidagi Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tashkil etilgan bo‘lib, u har bir shaxsning vijdon va diniy e’tiqod erkinligi huquqi, fuqarolarning dinga bo‘lgan munosabatidan qat’i nazar tengligini ta’minalash, shuningdek, diniy tashkilotlar faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vazifalarni hal etib kelayotganligi fikrimning tasdig‘idir.

Bugungi kunda Mamlakatimizdagi davlat ta’lim muassasalarida o‘qitish etti tilda olib boriladi. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o‘z ko‘rsatuвларини о‘н иккى тilda namoyish etmoqda, o‘ndan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi qoshida 138 ta milliy madaniy markaz, bundan tashqari, 16 ta konfessiyaga tegishli 2300 ga yaqin diniy tashkilot faoliyat yuritib kelmoqda.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida mamlakatimizda millatlararo va konfessiyalararo muloqotni rivojlantirish borasida institutsional yondashuv yo‘lga qoyildi va mazkur sohaga yanada alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning 2018 yil 16 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, din ishlari bo‘yicha qo‘mita huzuridagi Konfessiya ishlari bo‘yicha kengashning yangi tarkibi tasdiqlanib unga ko‘ra millatlararo munosabatlар va xorijiy mamlakatlar bilan do‘slik aloqalari qo‘mitasining asosiy vazifalari qatoriga davlat organlarining respublika hududida joylashgan milliy madaniy markazlar va do‘slik jamiyatlar bilan o‘zaro aloqasi va hamkorligini ta’minlash va yanada rivojlantirish kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017-yil 19-sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarining huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklif etilishi va ushbu hujjatning 2018-yil 12-dekabrda qabul qilinishi mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning mintaqalar orasida ham keng qo‘llanishi borasidagi tajribasidan foydalanishda har tomonlama namuna bo‘la olishini anglatdi.

2020-yil 13-oktyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasida bo‘lib o‘tgan saylovlarda O‘zbekiston milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha kengashi a’zoligiga uch yil muddatga 2021-2023 yillarga saylandi. Bu ham yurtimizda millati va dinidan qat’i nazar, inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan, shu jumladan, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida olib borilayotgan siyosatning e’tirofi desak, fikrimiz xato bo‘lmaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876сон “Millatlararo munosabatlар sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonining qabul qilinganligi va so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta’minlash, do‘slik muhitini va ko‘p millatli katta yagona oila tuyg‘usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma’rifiy aloqalarni kengaytirishga

yo‘naltirilgan keng miqyosdagi ishlar amalga oshirilganligi to‘g‘risida va keyingi faoliyati davomida tegishli tashkilotlarning amalga oshirilishi lozim bo‘lagan vazifalari belgilab o‘tilgan. Bularning barchasi O‘zbekistonning xalqaro munosabatlarda ishonchli va mas’uliyatli sub’ekt sifatidagi roli mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Yurtimizda nafaqat bugungi kunda millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik g‘oyasi qadim-qadimdan milliy qadriyatlarimiz ezgulik g‘oyalariga asoslanib, yaxshilik, tinchlik, do‘stlik kabi fazilatlarga tayanib kelganligi hech birimizga sir emas. Jumladan, Buyuk shoh va sarkarda Sohibqiron Amir Temur hukmronligi davrida davlatchilik, qo‘shinlar tuzish, ilm-fan va san’at, adabiyot, tibbiyot, me’morchilik, xattotlik va kutubxonalar rivojida katta o‘zgarishlar kuzatilgan. Taniqli fransuz olimi Lyusen Keren buyuk ajdodimiz xaqida “1336 yil 9 aprelda hozirgi Shahrisabzdan uncha uzoq bo‘lmagan joyda, Osiyodan Yevropagacha bo‘lgan xalqlarning va o‘z davrining tarixini o‘zgartirgan, jahon tamadduni tarixida yorqin iz qoldirgan shaxs dunyoga keldi”, deb shunchaki yozmagan edi axir. Bu gap tag zamirida butun bir markaziy osiyoda millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik, do‘stlik munosabatlarini o‘rnata olgan shaxs e’tirof etilayotganidir.

Amir Temurning ma’naviy merosi millatlararo totuvlik, islohotlarni amalga oshirishda yo‘lchi yulduz, yosh avlodni vatanparvarlik tarbiyasi, milliy o‘zlik va dunyoqarashni shakllantirish, bag‘rikenglik manbaiga aylangan. U hayotligida qo‘llagan va avlodlariga vasiyat qilib qoldirgan ma’naviy-axloqiy tamoyillari esa noyob asar “Temur tuzuklari”da o‘z aksini topgan.

So‘nggi olti asrdirki Temur haqida Yevropa tillarida 900 dan va Sharq tillarida 1000 dan ortiq asar yozilgan, uning merosini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy simpoziumlar o‘tkazilmoqda, taniqli tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev inauguratsiya marosimida so‘zlagan nutqida butun kuch va salohiyatimizni yagona ulug‘ maqsadimiz -Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratamiz deya alohida e’tirof e’tib “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarish bundan buyon ham faoliyatimizning bosh mezoni bo‘lishi to‘g‘risida, shuningdek, bugun mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan xalqaro tashkilotlar vakillari va xorijiy davlatlar elchilari qatnashayotgani, so‘nggi yillarda yurtimizda demokratik islohotlarni amalga oshirish, jumladan, inson huquq va erkinliklari hamda qonun ustuvorligini ta’minlash borasida olib borayotgan ishlar borasida hamda “Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyil asosida yangi dasturning

qabul qilinishi va yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab berashini ta’kidlab o‘tdi.

MUHOKAMA. Ushbu qabul qilinagan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi Bu-bejiz emas. Zero, ajdodlarimiz yetti raqamini baxt-saodat va omad keltiradigan, ezgu niyatni ro‘yobga chiqaradigan xosiyatlari timsol, deb bilganlar. Taraqqiyot strategiyasining aynan beshinchchi bo‘limi, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma’naviy va ma’rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar”ni rivojlantirish borasida bo‘lib, O‘zbekistonning ulkan imkoniyat va boyliklarga ega mamlakat ekanligi va bizning eng katta boyligimiz – turli millat va elatlar, diniy konfessiyalar vakillari o‘rtasidagi tinchlik va barqarorlik, o‘zaro hurmat va hamjihatlikning davom etib kelinayotgan, bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari yagona va ahil oila bo‘lib yashayotgani haqida yoritib berilgan. Shuningdek, ushbu millat va elat vakillarining fidokorona mehnati bilan jonajon O‘zbekistonimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘sheyotgani ayniqsa quvonarlidir. Bizning davlatimizda jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini bundan buyon ham barcha millat va elat vakillarining milliy o‘zligini, ona tili va madaniyatini, dini, urf-odat va an’analarini saqlab qolish va rivojlantirishga, do‘stlik va ahillik muhitini yanada mustahkamlashga yo‘naltirish borasidagi amalga oshirilishi rejalshtirilayotgan ishlar turli millat va elatlar vakillarining bir zamin, bir Vatanda olajanob g‘oya va niyatlar yo‘lida yanada hamkor va hamjihat bo‘lib yashashini va rivojlanishini uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi.

Shuningdek, strategiyaning yettinchi bo‘limida, mamlakatimizda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashning ishonchli kafolatlari borasida amalga oshirilishi rejalshtirilgan ishlar pragmatik va chuqur o‘ylangan tashqi siyosat va iqtisodiy diplomatiya borasidagi munosabatlarimizni yanada rivojlantirish, ayniqsa Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha mamlakatlar bilan yaxshi qo‘schnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini tobora kuchaytirish borasida strategig rejalarни amalga oshirish rejalshtirilayotgani bugungi dunyoda va mintaqamizda vujudga kelayotgan bugungi murakkab va tahlikali vaziyatda juda-juda muhimdir.

Dono xalqimizning “Qo‘sning tinch-Sen tinch” degan maqoliga ming yillardan buyon amal qilib kelayapdi. Bu bejizga emas. Bugungi kunda qo‘sni davlatlarda yuz berayotgan holatlar har birimizni tashvishga solishi shartdir. Jumladan, mintaqamizning ajralmas qismi, yaqin qo‘snimiz bo‘lgan Afg'onistonda tinch va osoyishta hayotni tiklash, bu mamlakatda iqtisodiy va gumanitar inqirozga yo‘l qo‘ymaslik uchun afg'on xalqiga qo‘limizdan kelgan barcha yordamni ko‘rsatish

borasidagi ishlarning rejalarshirilgani bu-O‘zbek xalqining naqadar oliyjanob va bag‘rikengligidan dalolatdir.

Shuningdek, Rossiya, Xitoy, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Birlashgan Arab Amirliklari va dunyoning barcha mintaqalaridagi sheriklarimiz bilan o‘zaro manfaatli va ko‘pqirrali aloqalarni kengaytirishga alohida e’tibor berilishi nafaqat mamlakat taraqqiyoti balki ilm-fan rivojiga va yurtimizga kadrlarni chet ellarda o‘qitish va malakasini oshirishi va yurtimizga kerakli kadr bo‘lib kelishiga imkoniyat yaratadi.

XULOSA. Biz, juda tez, mislsiz shiddat bilan o‘zgaryotgan zaminda yashayapmiz. Bu esa bugungi kunda quyida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan bir qator takliflarni amalga oshirishni taqazzo etadi. Jumladan:

- Milliy qadriyatlarimizni yanada rivojlantirish va o‘zbek tilining ahamiyatini oshirish hamda bu qadriyatlarni keyingi avlodlarga aslicha yetkazish borasidagi salmoqli ishlarni amalga oshirish;
- Yo‘qolish arafasida turgan an’ana va qadimiy urf-odatlarni tiklash;
- Muqaddas islom dinimizning insonparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etish, “jaholatga qarshi – ma’rifat” tamoyili asosida unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni sog‘lom e’tiqod ruhida tarbiyalashga alohida ahamiyat berish;
- Shuningdek, boshqa dinlar o‘rtasida nizolar va tushunmovchililar kelib chiqishini oldini olish va dinga bo‘lgan munosabatidan qat’i nazar tengligini ta’minlash;
- Yovuz niyatli shaxslarning ko‘p millatli xalqimiz orasiga kirib, kelishmovchilik va turli nizolar keltirib chiqarishini oldini olish va bu borada Huquqni muhofaza qiluvch organlar, hokimliklar, o‘zini-o‘zi boshqaqarish tizimi xodimlari bilan muntazam aloqada bo‘lish va hamkorlikda ishlash kabi rejalarini asdoidil amalga oshirish maqsadga muvofikdir.

Vatan taraqqiyoti yo‘lida mamlakatimiz tinchligi, el-yurt farovonligi yo‘lida hamisha birdam bo‘lib, yurtimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analaridan qatiy nazar doimo bir xalq bo‘lib yashashni va birdamlikni saqlab qolishni ta’minlash nihoyatda ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi bиринчи Prezidentining 1992-yil 3-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi baynalmilal madaniyat markazi ta’sis etish to‘g‘risida”gi Qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yilda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonuni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinig 2018 yil 16 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
5. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi davlat dasturi
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan takliflari bayoni
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-sон “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni
8. “Temur tuzuklari”A.Temur.:
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinig 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasi sari” davlat dasturi
10. “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi” kitobi .SH.M.Mirziyoyev

Internet saytlari:

1. Lex.uz
2. Strategy.uz
3. Standart.uz
4. Data.gov.uz